



# Boshlang‘Ich Sinf Ona Tili Va O‘Qish Savodxonligi Darslari Samaradorligini Ta‘minlovchi Integratsion Yondashuv Metodikasi

*Adizova Nodira Baxtiyorovna*

*BUXDUPI dotsenti*

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada 2020-2021-o‘quv yilida joriy etilgan ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi tahlili va fanlararo integratsiya qilish haqida yoritilgan. Ona tili darslari orqali bir necha fanlarni integratsiyalash orqali o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish metod va usullari haqida ma’lumot keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** milliy o‘quv dasturi, ona tili va o‘qish savodxonligi, integratsiya, inkorparatsion yondashuv, kasbga yo‘naltirish, siperalsimon darsliklar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim tizimida fanlarni o‘qitish metodikalari, uzuksiz metodik xizmat ko‘rsatish tartibi va o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish maqsadida, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ona-tili fanini o‘qitishda zamonaviy inter faol metodlardan foydalangan holda o‘quv jarayonlarini saloxiyatini oshirish hamda boshqa fanlar aro integratsiyalashuvini ta‘minlagan holda o‘quvchi yoshlarni bilim saloxiyatini yanada oshishiga muxim zamin yaratadi.

2021-2022-o‘quv yilida yangi milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan birinchi va ikkinchi sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi yaratildi. Bu darslik jahon ta’lim tizimi talablariga mos ravishda tuzildi. Milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan darsliklar siperalsimon tuzilgan bo‘lib, o‘quvchi bilimini yanada oshiradi va mustahkamlaydi. Bu darsliklar mualliflari Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun.Xalqaro ekspert Lannuzzi Susan. Bu darsliklar ikki qismidan iborat. Darslik o‘quvchi yoshiga mos ravishda chiroyli rasmlar, audiomatnlar bilan boyitilgan. Bu darsliklar orqali o‘quvchilarning nutqiy kampetensiyalari ya’ni og’zaki nutq, yozma nutq, anglash(o‘qish va tushinish, tinglab tushinish) va lingvistik kanpetensiyalari shakllantiriladi. O‘quvchini xalqaro baholash – o‘qish savodxonligini baholovchi PIRLS hamda PISA dasturlariga tayyorlash maqsadida o‘qib tushunish malakalarini shakllantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar darslik mazmuniga singdirilgan.

Darslikda o‘quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi, o‘qib tushinish va tinglab tushinishga yo‘naltirilgan juda ko‘p topshiriqlar berilgan. O‘qish savodxonligi mukammal bo‘lgan o‘quvchi boshqa fanlarda o‘rganayotgan

matnlarni o‘qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo’llay olish iqtidori rivojlantiriladi. Shuningdek, o‘quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo‘ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish o‘qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri. Bunda matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko‘zda tutiladi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligi ijtimoiy va aniq fanlar bilan integratsiyalashgan holda o‘qitiladi. O‘quvchilar matndan tashqari jadval, diagrammalardagi topshiriqlarga mantiqiy va ijodiy yondashadi. Ona tili va o‘qish savodxonligi matematika, astronomiya. Tarix, biologiya, texnologiya, rasm, tabiiy fanlar va geografiya fanlari bilan integratsiyalashgan. Ona tili va o‘qish savodxonligini musiqa va tasviriy



san'at darslarini o'zaro bog'lab tashkil etish bolalarda san'at asarlarini to'g'ri tushunish va qadrlash qobiliyatlarini o'stiradi, o'quvchining ma'naviy dunyoqarashini o'stirishga xizmat qiladi.

O'qituvchilar integratsiyadan ko'pincha butun dars bosqichlarida emas, balki uning biron bosqichida foydalanishadi. Ya'ni darsning muayyan qismigina integrasiyalashadi. Shu usul bilan tabiatshunoslik xususiyatiga ega axborotlar lug'at boyligi bilan keng ishlashda imkon yaratadi. U yoki bu so'zni tilshunos nuqtayi nazari bilan ham, tabiatshunos nuqtayi nazari bilan ham talqin etish mumkin. Bu ona tili va tabiatshunoslik fanlari integrasiyasiga zamin yaratadi.

Tabiiy fanlar va geografiya fani bilan integratsiyalashganligini 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligining 1-qismida yaqqol ko'rishimiz mumkin. 3-bo'lim "Tabiat ne'matlari" bo'limidagi qishda uklaydigan hayvonlar, yer ostida nima bor?, sayohatchi qushlar mavzulari aynan tabiiy fanlar va geografiya bilan bog'liq. Yer ostidagi qazilma boyliklari haqidagi matn tushintiriladi. Matn tarkibidagi narsa nomlarini bildiruvchi so'zlarni ularga so'roq berish orqali aniqlanadi. Matnni ifodali va ravon o'qish malakasini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar bajariladi. Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va ularni tejash haqida tushintiriladi.

Bu mavzular orqali o'quvchilar geografik bilimlarini oshiradilar. "Yer ostida nima bor" mavzusini tushintirayotganda o'qituvchi yer osti boyliklarini qazuvchi kishilar ya'ni geologlar haqida ham ma'lumot beradi. Geologlar yer osti boyliklarini qidirib topuvchi kasb egalaridir. Geolog kasbi juda mashaqqatli shu bilan birga juda sharafli kasbdir. O'quvchilarni bu mavzu orqali geolog kasbiga qiziqish uyg'otamiz. Bu mavzudan so'ng "Geolog" so'zi she'ri keltirilgan. Bu she'r orqali geolog kasbi haqidagi bilimlari mustahkamlanadi. Bir vaqtning o'zida bir mavzu orqali bir necha fanlarni integratsiyalash orqali o'quvchilarni kasbga yo'naltiramiz. Bu ona tili darslarida inkorparatsion yondashuv deb ataladi. O'quvchilar olgan bilimlarini haqiqiy hayotda qo'llay oladilar. Bu darsliklar aynan shunga yo'naltirilgan.

Ona tili va o'qish savodxonligi darsligini yana biologiya fani bilan integratsiyalashgan. 2-sinf darsligining 1-qismi 4-bo'lim "Sog' tanda sog'lom aql" bo'limi aynan biologiya fani bilan integratsiyalashgan. Bu bo'limda bakteriya va mikroblar, foydali nonushta, tanamizni o'rganamiz mavzulari o'rinni olgan. Bu bo'limga 28 soat ajratilgan. O'quvchilar 28 soat davomida ona tiliga doir bilimlar bilan birgalikda biologiyaga doir bilimlarni egallashadi. Aynan tana a'zolari haqidagi mavzular 2-sinf Tabiiy fanlarda ham bor. Ona tili va o'qish savodxonligi va tabiiy fanlardagi bu mavzular o'quvchilarga bir vaqtida siperalsimon tarzda o'rgatiladi. Darsliklarning bunday tuzilganligi o'quvchilarning bilimini yanada mustahkamlaydi. Bakteriya va mikroblar mavzusini o'tish jarayonida matn bilan tanishtiriladi, undagi ayrim so'zlar talafuziga e'tibor qaratiladi. So'zlar tarkibidagi A-O va O-O' unlisi ishtiroy etgan so'zlar talafuzi va imlosiga e'tibor qaratiladi. Ushbu harflar qatnashgan so'zlarni bo'g'lnlarga ko'chirich mashqlari o'tkaziladi. Matn tarkibida kelgan ilmiy atamalar ma'nosi tushintiriladi, lug'at bilan ishslash ham o'rgatiladi. Bu ona tiliga doir o'rganishi kerak bo'lган bilimlardir. Biologiyaga doir bimlar ham shu darslar davomida o'quvchilarga o'rgatib boriladi. Bakteriya va mikroblar mavzusi ilmiy mant hisoblanadi. Bakteriyalar tana qismlarining turli qismlarida joylashishi, ular foydali va zararli bo'lishi, biotin, K vitaminini haqidagi biologiyaga oid bilimlar ham o'rgatiladi.

Sog'lom turmush tarzi, o'zlarining tana tuzilishlari haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar. Darslar davomida egallagan bilimlarini o'zlarining hayotlarida o'sha vaqtning o'zidayoq qo'llay boshlaydilar. Chunki bu darslik olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishlariga yo'naltirilgan. Bu darslarni o'tish jarayonida albatta ko'rgazmali vositalardan va AKT vositalaridan foydalanish juda muhim. Bu dars samaradorligini yanada oshiradi.

Milliy o'quv dasturi asosida yaritilgan barcha darsliklar o'quvchini hayotga tayyorlash va olgan bilimlarini o'z kundalik hayotlarida qo'llay olishlari bilan ajralib turadi.

## Foydalanilgan adabiyotla

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.11.2020 yildagi PQ-4884-son



2. Nodira Adizova Bakhtiyorovna Place Names and Related Concepts Study. European Journal of Life Safety and Stability 2022/2/24
3. Нодира Бахтиёровна Адизова Этимология некоторых топонимов Бухарской области. Барқарорлик ва етакчи тадқиқотлар онлайн илмий журнали 2022/1/29
4. Adizova Nodira Bakhtiyorovna. Linguistic-etymological classification of the bukhara district. Scientific Bulletin of Namangan State University. 2020 -3
5. Адизова, Нодира Бахтиёровна, Топотопонимы, образованные от известных топонимических основ. Молодежь XXI век-2020 174-177 с
6. Adizova, Nodira Bakhtiyorovna, The basis of researching the microtoponymy of Bukhara region. Scientific reports of Bukhara State University. 2018 92-95
7. Adizova Nigora, Adizova Nodira. Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari soha lingvistikasi: Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallar Buxoro, 10-noyabr, 2021-yil
8. NA Bakhtiyorovna. Place Names and Related Concepts Study- European Journal of Life Safety and Stability 2022
9. НБ Адизова Атоқли отларда ясалишининг бир усули - Scientific progress, 2021
10. Amonov Ulugmurod Sultonovich Новые грани творческого наследия Элбека.“Til va adabiyot ta’limi” 2020
11. ГЭ Сайдова. Использование современных педагогических технологий на уроке математики. Ученый XXI века • 2018 • № 12 (47)
12. B.E.Qilichev Uzbek national folk tales and the nature of anthroponyms in live communication. Middle European Scientific Bulletin, volume 12 May 2021.
13. Qilichev B Toponyms Formed On The Basis Of Nation Names. International Journals of Sciences and High Technologies. Vol. 25 No. 1 February 2021.
14. Qilichev B Anthroponyms in Uzbek folk tales: problem with content and frequency. Philosophical Readings XIII.